



O'ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARDAN MAQSADLI FOYDALANISH YO'LLARI

Yoqutxon Sodiqjonova

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundalik hayotimizda qo'llanilayotgan chet o'zlaridan to'g'ri foydalana olish hamda tilda is'temol qilinayotgan so'zlarimizni tub mohiyatini anglagan holda og'zaki nutqimizda ishlatish lozimligi to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: til, lug'at, aloqa, sart, xalq.

Аннотация: В данной статье утверждается, что необходимо уметь правильно употреблять иностранные слова, используемые в нашей повседневной жизни, и употреблять их в устной речи, понимая суть используемых в языке слов.

Ключевые слова: язык, лексика, общение, стиль, люди.

Annotation: In this article, it is stated that we should be able to use the foreign words that are used in our daily life correctly and that we should use the words that are used in the language in our oral speech, understanding their essence.

Key words: language, vocabulary, communication, sart, people.

Til haqida gapirar ekanmiz, ota tilimizni bong urib ko'klarga ko'targimiz keladi. Nima deb? O'zbek tili boy til deya. Xo'p tilimiz shunchalar lug'atga boy ekan, nega unda biz kundalik hayotimizda rus yoki ingliz tiliga doir so'zlarni o'zbek tili bilan birgalikda qorishiq tarzda qo'llaymiz? Bu odat tusiga kirib qolgan holatimiz mustamlaka davrining ta'sirimi yoxud biz o'zimizni har qadamda zamonaviy tutishga bo'lgan urinishimizmi? Ha, doim til haqida gap ketar ekan, shu kabi savollarning yuzaga qalqib chiqishi tabiiy. Mana necha yillardan buyon til o'rganishga bo'lgan talab avj olib borar ekan, bu orqali tilimizda chet tillarga oid so'zlarning tarqalayotganini yoki OAV da berilayotgan yangiliklarda ham o'z -o'zidan o'zga tildagi unsurlarning aralashib qolishini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon axborot orqali tomoshabin ong ostiga ham singiydi va siz xohlaysizmi yoki yo'q avtomatik tarzda tilimizda yet til lug'atidan foydalaniayotganimizni sezamiz. Albatta, bu ba'zi hollarda o'zga so'zni tilimizda muqobil varianti yo'qligi uchun bemalol qo'llayveramiz. Biroq ota tilimizda o'sha so'zning o'zbek tilida asl shakli bo'la turib, biz chet so'zidan foydalanishmiz to'g'rimikin? Ayni shu vaziyatda Abdulla Qahhorning tilimiz haqida qayg'urib aytgan gapi esga keladi: "Ko'chada biror odam qoidani buzsa, darror milisionerning





hushtagi churullaydi, qoidabuzar mo'maygina jarima to'laydi. Nega endi tilimizni pisand qilmaydiganlar, uni har qadamda buzib rasvo qilayotganlarning mushugini hech kim "pisht" demaydi?" [1,450] Chindan nega bunday? Biz qoidani buzish orqali jarima qilishga ustamiz. Ammo nega bu qonun davlat til masalasasi kelganida ishlamaydi? Axir til ortida bir inson hayoti emas, millat taqdiri yotibdi-ku. Ertaga tilimiz o'lib borsa ham biz shunday jim turaveramizmi? Hammamizga tanish bir gap bor: "Kasalni davolagandan, uni oldini olgan yaxshi". Biz ham tilimizda mavjud kamchiliklarni vaqtida bartaraf etmasak, ertaga butun jamiyatimiz kelajagiga zarar yetishi hech gap emas. Chindan ham ba'zi hollarda yon-atrofimizga qaraganimizda o'n yillardan ortiq muddat ichida chetdan kirib kelgan so'zlarning sanog'iga yetmaymiz. To'g'ri dastlab, muqobil variantini topishga urindik. Biroq xalq bundan qanchalik to'liq foydalandi? Shuni ochiq tan olish kerakki, tildan foydalanuvchi uchun qaysi bir variant qulay bo'lsa, hamda avvaldan iste'molda bo'lgan bo'lsa ana o'shasini keng qo'llashadi. Siz uchun "tayyoragoh" deyish qulaymi yoki "aeroport?" Tilimizning boyishi uchun chetdan kirib kelgan so'zlarning o'rni ham ma'lum ma'noda muhim. Masalan, xalqlar bir-birlari bilan iqtisodiy aloqaga kirishmay yashayolmaganlaridek, ularning tillari ham bir-birlari bilan ta'sirlanmasdan rivojlnana olmaydi. Buni turli elatlari va yurtlar o'rtasida qatnagan karvonlar turli-tuman buyum-ashyolargina emas, ularning nomlarini ham tashigan [1,450]. Albatta, bu ko'chish tilning boyib borishidagi bir yo'llardan biri. Faqat bu borada bir chet so'zni shundayligicha olavermasdan, ma'no va uslub jihatdan muvofiq kelishiga ham e'tibor qaratmog'imiz lozim. Beruniy davriga nazar tashlaydigan bo'lsak, u zamonda ham o'zaro so'z almashishlar mavjud bo'lgan. Faqat hozirgi bilan farqi shunchaki ko'r-ko'rona olib ketaverishgan emas, aksincha sharqona qarash va tushunarli tarzda qo'llay bilishgan. E'tibor qarating, "рациональные науки" atamasini shunchaki "ratsional ilmlar" deya emas, "ilmi aqliya" deb iste'molga olib kirdilar [1,451]. Demak, shu jarayondan chetdan so'z olar ekanmiz, bu yaxlit so'z bizning sharqona mentalitetimizga munosib keladimi yoki yo'q kabi talablarni qo'yishimiz-da lozim. Til millatning eng katta boyligi ekan, u orqali har bir xalqning tarixi, madaniyati, ma'naviyati saqlanib qoladi. Hattoki, biz kundalik hayotimizda ishlatadigan sevimli maqol iboralarimiz ham.

Shu haqida munozarada men televideniyega to'xtalib o'tmoqchiman. Sababi, siz telekran qarshisida o'zbek tilini millat oldida yo ko'klarga ko'taruvchi, yoki birlamchi grammatik xatolar tufayli yerga uruvchi muxbir, jurlanistga ko'zingiz





tushadi. Ayrim xususiy telekanallarga e'tibor qaratadigan bo'lsangiz, ko'rsatuv mobaynida muxbir yoxud teleboshlovchi adabiy til me'yorlaridan chetga chiqqan holda, so'zlashuv uslubidagi dialektlardan bemalol foydalanadi [3]. Axir xalqqa ko'zgu tutadigan shaxsning o'zi tildan to'g'ri foydalanmas ekan, unda oddiy xalqdan nima kutish mumkin? Bundan tashqari, tilda shaklni go'zal qilaman deb, asl mohiyat chetda qolib ketayotganligiga duch kelamiz. Masalan, Ozod Sharafiddinovning "Tilda hikmat ko'p" maqolasidagi shunga oid bir misolga yuzlanadigan bo'lsak, siz ham munaqqidning fikriga ikkilanmay qo'shilgan bo'lardingiz. "Sizni ajoyib uchrashuv kutadi" deydi. "To'g'ri, bir o'qishda g'alizlik ko'zga tashlanmaydi. Biroq o'ylab ko'rilsa, rus tilidan so'zma-so'z tarjima qilinganini, o'zbek tili tabiatiga monand emasligini payqash qiyin emas" deb izohlaydi. Shu tufayli foydalanayotgan so'zimizni ham shakl, ham ma'no jihatiga qaramog'imiz darkor. Axir til karvonsaroy emas, nokerak so'zlarni ham olib ketavergani. Maqolada berilgan Abdulla To'qay misralariga ko'z yogurtirsangiz, qisqalikka intilib, asl mazmunni saqlash bilan birga, shoirning orzu-armonlariga ham guvohi bo'lasiz.

Kirlanib bitdim o'zim,

Dunyoni poklay olmadim [1,454]

Bu misralarni o'qib, qani endi hozirgi OAVda va adabiyotimizda shu singari jumllalarning soni kengaysa degingiz keladi. Ozod Sharafiddinov tabiri bilan aytganda tilni parvarish qilish kerak. Ammo qay yo'l bilan? Buning uchun avvalo o'zbek tilimizni teran anglashdan boshlamog'imiz, aynan bu yo'lدا tilshunos yoki jurnalist va yozuvchilargina emas, ular bilan birga butun xalq o'z tilining jamiki boylig-u imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda samarali o'rganishi, iloji boricha so'zlarning ildizini, kelib chiqishini, undan qay tarzda to'g'ri foydalanishga ahamiyat qaratomog'i lozim. Jumladan, barchamiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sart so'zi majluldır" nomli maqolasini bilamiz. Undagi "sart" so'zi ma'nosi bo'yicha bahs ketgan. Dastlab, maqolada "sart" so'zi qazoq, tatarlar Turkiston xalqining xoh turk, tojik yo arab bo'lsin ularga ushbu so'z bilan murojaat qilingan. Boshqa ma'nosa esa, "sart" deyilganda turkistoniy degan so'zni ruscha tarjimasi deb bilganlar. Keyinchalik Sherli Lapin yozishiga qaraganda sart so'zi haqoratomuz so'zlardan biri ekan. Biroq Ostroumov "Sartlar" nomli kitob yozib, unda Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining xalqi "sart" deya ma'lum qilgan. Tatar muarixlaridan biri Zaki Validiy esa "sart" iborasi haqida taxminan shunday deydi. "Bir zamaonlar Turkiston xalqi "sart"





bo'lganlar. Ammo Chingizzonlar va mo'g'ullarning istilosi sababi ila ismlari almashgandir. Samarqand va Buxoroda sart yo'q. Hamda tojik, arab va o'zbeklar ham sart emas. Ho'qand va Toshkent xalqi sartdir, lekin ular urug'ini bilmaydilar va ham ular na turk va na o'zbek va na tojik va arabga o'xshaydi. Sart ismlik qabila Turonda bo'lmasa-da, eski kitoblarda bor" deb izohlagan [2,86]. Qaranki, birgina "sart" iborasi yaxshigina bahsga sabab bo'lgan. Hatto bir-birini inkor qilgan vaziyatlarning ham guvoysi bo'ldingiz. Ammo bundan maqsad nima? Albatta, so'zni o'rnida to'g'ri qo'llay bilish. Shu o'rinda biz ham bir so'z qo'llashdan avval uning etimologiyasiga ham ko'z tashlab qo'ysak, foydadan holi bo'lmaydi.

Maqola yozish jarayonida shuni angladimki, biz ko'p hollarda so'zlarni noo'rin yoki asl ma'nosini tushunmay turib foydalanan ekanmiz. Hatto, bu orqali kichikmi, kattami o'zaro nizolarga duch kelamiz. Albatta, buning bari tilga, uning asl mohiyatiga borib taqaladi. Biz hozirgi davrimizda chet tilini o'rganishga urg'u berishimiz bu koni foyda. Biroq shu yo'lida o'z tilimizga e'tibor berishni-da unutmaylik. Sababi, qanchalik ota tilimizni mukammal bilsak, chet tillarini o'rganishimiz ham shunchalik osonlashadi. Men xulosamning so'ngini Chexovning jumlesi bilan yakun yasamoqchiman. "Odamda hamma narsa chiroyli bo'lmog'i kerak: kiyim-kechagi ham, fe'l-atvori ham, husni ham" [1,456]. Va, albatta, bunga qo'shimcha insonning tili ham. Chunki kishi ming go'zal ko'rinsa-da, agar uning tili shirin yoki ma'noga ega bo'lmasin, har qanday insonni mahliyo qiladigan go'zallik ham ojiz qoladi. Shunday ekan, qalbimiz va yon-atrofimizni chin mazmunga ega bo'lgan til bilan go'zallashtiraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozod Sharafiddinov. Tilda hikmat ko'p. - T.: Sharq, 2019.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Saylanma. II jild. Sart so'zi majhulmi? – T.: Akademnashr, 2021.
3. til.gov.uz

